

KOMSTOK QURTINING BIOEKOLOGIYASI, TARQALISHI VA ZARARI

q.x.f.f.d. dotsent: **Isashova.U.A**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

isashovaumida@gmail.com

tayanch doktorant: **Imomaliyev.E.N**

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

eraliimomaliyev2002@gmail.com

Annotatsiya: Zararkunandalar orasida O'zbekistonda chegaralangan holda tarqalgan, o'ta hayfli bo'lgan, ichki karantin organizmlar ro'yhatiga kiritilgan zararli hasharotlar mavjud. Bu kabi zararkunandlarning yanada ko'proq hudularga tarqalishini oldini olish uchun hasharotning biologiyasini hamda tarqalish arealini bilish muhim hisoblanadi. Quyida shunday hasharotlardan biri bo'lgan Komstok qurtining biologiyasi, tarqalishi hamda zarari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Karantin, zararkunanda, entomofag, lichinka, erkak, urg'ochi, avlod.

BIOECOLOGY, DISTRIBUTION AND DAMAGE OF THE COMSTOCK WORM

Abstract: Among the pests, there are harmful insects that are distributed in a limited manner in Uzbekistan, are extremely dangerous and are included in the list of internal quarantine organisms. In order to prevent the spread of such pests to more areas, it is important to know the biology and distribution area of the insect. Below is information about the biology, distribution and damage of one such insect, the Comstock worm.

Key words: Quarantine, pest, entomophagus, larva, male, female, offspring.

Kirish. Jahon miqyosida aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda agrar sohaning o'рни va ahamiyati kundan-kunga oshib bormoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham mavjud resurs va imkoniyatlardan oqilona foydalanib, aholini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, hosildorlik va manfaatdorlikni yanada oshirish, sohaga ilm-fan yutuqlari hamda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masaladir Respublikamiz qishloq xo'jaligini texnik va texnologik yangilash maqsadida 2015 yilda 9,7 ming gektar maydonda yangi intensiv bog'lar tashqil etilib, 2746,2 ming tonna meva mahsulotlari etishtirildi. Xususan 2017 yilda yangi tashqil etilgan olma bog'larining xajmi 5,2 ming gektar maydonni tashqil etgan va eksport xajmi 12% ga ortgan. Mamlakatimiz aholisini oziq - ovqat havfsizligini ta'minlash, jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish kabi vazifalardan kelib chiqib, ekinlarni yetishtirishda zamonaviy ilmiy asoslangan texnologiya va vositalardan foydalanishni talab etadi. Mamlakat miqyosida har yili qo'shimcha ravishda 25-30 ming gektar bog'lar tashqil etilib, bunda olma bog'lariga katta ahamiyat berilmoqda. Ammo yetishtirish jarayonida qator muammolar vujudga kelib hosil sifati va hajmini kamaytirmoqda.

Meva mahsulotlarini yetishtirishda ayniqsa, zararunandalarini o'z vaqtida aniqlash, rivojlanish va zarar keltirish darajasini aniqlash hisobiga samarali kurash choralarini belgilash nihoyatda muhimdir.

Mavzuning dolzarbligi. Komstok qurti ashaddiy karantin zararkunandasi hisoblanib 300 dan ziyod o'simlik turiga zarar yetkazadi. Shular orasida anor, olma, behi, nok, shaftoli kabi mevali daraxtlarga qattiq zarar keltiradi. Hozirgi kunda mevachilik O'zbekistonning asosiy eksport mahsuloti hisoblanadi shuning uchun eksportbop mevalarning xosildorligi hamda sifatini yaxshilash uchun to'g'ri agrotexnika bilan birgalikda ularni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilish dolzarb masaladir. Demak, yetishtirilayotgan mevali bog'larda tarqalgan komstok qurti bioekologiyasi, zararini o'rganish va karantin tadbirlarini ishlab chiqish hamda meva hosildorligiga ta'sirini ilmiy asoslash nihoyatda dolzarb mavzu hisoblanadi. O'zbekistonga kirib kelgan vaqtdan beri 79 yil o'tgan bo'lsada shu yillar mobaynida

karantin chora-tadbirlari qat'iy olib borilishiga karamasdan tarqalmokda. Bugungi kunda MDH davlatlarida komstok qurti barcha mintaqalarga keng tarqalib ketish xavfi mavjud. Komstok qurti tarqalmagan xududlarni undan muhofaza qilish uchun ko'chatlarni, o'simlik mahsulotlarini kiritish va chiqarishida barcha karantin qoidalariga amal qilish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini keng ko'lamli olib borish lozim.

Biologiyasi: Komstok qurtining erkak va urg'ochi zotlari tashqi tuzilishi bo'yicha keskin farqlanadi. Urg'ochisi yassi shaklli, qanotsiz, kam xarakat va usti oq mumsimon dog'lar bilan qoplanib 5 mm uzunlikda bo'ladi. Tanasining yon tomonida 17 juft mumsimon o'simtalari bor, dum qismi sezilarli darajada cho'zinchoq bo'ladi. Mo'ylovlari sakkiz bo'g'inli bo'ladi. Komstok qurtining erkagi 1 juft shaffof qanotli, serxarakat, rangi kizg'ish-jigarrang tusda, uzunligi 1-1,5 mm, mo'ylovlari 10 bo'g'inli. Tuxumining uzunligi 0,3 mm, bir tomonidan toraygan oval shaklda. Rangi sariq-zarg'aldoq bo'lib, yupqa oq g'ubor bilan qoplangan Komstok qurti tanasining kattaligi va dum qismining uzunligi bilan bir-biridan farq qiluvchi uchta lichinkalik yoshini o'taydi. O'zbekistonda komstok qurti bir yilda uch marta nasl beradi, qisman to'rtinchi marta xam nasl tarqatadi. Lekin sovuq tushishi bilan to'rtinchi nasl qirilib ketadi. Komstok qurti tuxum bosqichida qishlaydi. Bir urgochi qurt 250 dan 600 donaga qadar sarg'ish-zarg'aldok tusdagi tuxumni mumsimon oq qopchiqqa tashlaydi. Bu qopchiqni o'rtachi qurtning mum ajratuvchi bezlari yasab chiqaradi. Uchinchi nasl sentyabr-dekabr oylarida qishlash uchun tuxum tashlaydi. Bu mumsimon qopchiqlar yozdagilariga nisbatan sertuk va zichroq bo'ladi. Bir avlodining rivojlanishi xaroratga karab 42 kundan 65 kungacha davom etadi. O'zbekiston sharoitida komstok qurti birinchi avlodining rivojlanishi aprel oyining boshidan may oyining oxirigacha davom etadi, ikkinchi avlodi may oyining o'rtalaridan iyun oyining boshigacha, uchinchi avlodi esa iyul oyining boshidan sentyabr oyining urtalarigacha davom etadi.

Tarqalishi: Komstok qurtining vatani Yaponiya va Xitoy davlati bo'lib, entomolog S.Kuvan 1902 yilda bu qurti ta'riflaydi va Amerikalik entomolog sharafiga Komstok nomini beradi. Komstok qurti to'g'risida ko'p yillar mobaynida adabiyot manbalarida

ma'lumotlar berilmagan, 1920 yilga kelib matbuotda uning yangi o'choqlari paydo bo'lishi to'g'risida xabarlar tarqala boshladi. Hozirgi vaqtda komstok qurti Osiyo, Afrika, Avstraliya, Amerika va yevropaning ko'pgina mamlakatlarida tarqalgan. MDXda komstok qurti birinchi marta 1939 yilning avgust oyida O'rta Osiyo ipakchilik institutining Toshkent shahri yaqinidagi Jarariq tajriba xo'jaligida Yaponiyadan keltirilgan yirik bargli tut ko'chatlarida aniqlandi. O'zbekistonda komstok qurti Toshkent viloyatining butun sug'oriladigan qismiga, so'ngra Respublikaning boshqa viloyatlariga xam tarqalib ketdi. Komstok qurti 1947 yilda Farg'ona viloyatida topildi. Bu yerda qurtlar Toshkent viloyatidagiga qaraganda tezroq tarqaldi. 1953 yilda butun Farg'ona viloyati bog'larining, daraxtzorlarining ko'pligi, tutlarining qalin o'tkazilishi va ariqlar komstok qurtning tez tarqalishiga yordam berdi. 1953-1957 yillarda Andijon viloyatining barcha tumanlarida komstok qurti juda tez tarqaldi. Ushbu zararkunanda 1957 yil Jizzax viloyatining Zomin, Samarqand viloyatining Ishtixon tumani va Samarqand shaxrida, 1960 yil esa Buxoro, Navoiy viloyatlari va 1961 yilda Surxondaryo viloyatining Avg'oniston bilan chegaradosh tumanlarida tarqalgan. Xorazm va Urganchda 1962 yilda, Qoraqalpog'iston Respublikasi xududlarida 1964 yillarda paydo bo'ldi. Barcha komstok qurti tarqalgan yerlarda bu hasharotning tutga yetkazishi mumkin bo'lgan zarari aholiga ayon bo'lmoqda. Shuning uchun ichki karantin choralari orqali bu hasharotni mintaqamiz bo'ylab yanada tarqalishining oldini olish talab etiladi. O'zbekistonda ushbu havfli zararkunanda va unga qarshi kurash tadbirlari to'g'risida O.A.Sulaymonov, K.Bobobekov, T.Islomov, G.T.Dustmurodova, D.T.Dustmatova, J.N.Yaxyoyevlar tavsiyanoma hamda o'quv qo'llanmalar nashr ettirganlar.

Xulosa. Komstok qurti (*Pseudococcus comstoci* Kuw) - O'zbekistonning ko'pgina hududlarida mevali hamda manzarali daraxtlarga zarar keltiradi. Ushbu zararkunanda ashaddiy ichki karantin hasharot bo'lib zarari qarshi kurash ishlari olib borilmaganda juda ham og'ir oqibatlarga olib keladi. Birinchi navbatda zararkunandani tarqalishi yangi hududlarga yetib bormasligi uchun karantin tadbirlari olib borilishi maqsadga muvofiq. Zararkunanda tarqalgan hududlar esa zudlik bilan zararlanish

darajasi aniqlanib kurash choralari tanlanadi havf past darajada bo'lganda pseudofikus entomofagi bilan kuchli zararlangan holatda ta'sir etuvchi modddasi dimetoat, imidaklopid, malation, klotianidin bo'lgan kimyoviy insektitsidlar bilan ishlov berish tavsiya etiladi. (Xujaev SH.T.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Анорбаев А.Р, Болтаев Б.С., Камилов Ш.Г., Нуралиев Х.Х. «Меры борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур» Ташкент - 2016.
2. Архангельская А.Д. К фауне червецов и щитовок (Coccidae) Туркестана// труды Туркестанского научного общества, т.1. - Ташкент - 1923 - С 159-226
3. Атанов Н., Гуммель Э. - Ацекол против восточной плодовой жорки // Сельское хозяйство Узбекистана. - 1987. №3. - С.42-43
4. Kimsanboev X.X. va boshq.«O'simliklarni kimyoviy himoya qilish». Toshkent, «O'qituvchi», 1997.
5. Murodov S.A. «Umumiy entomologiya» Toshkent. 1987
6. Муродов Б.Э., Яхёев Ж.Н. "Карантинный вредители внутреннего карантина Республики Узбекистан" Журнал, "Образование и наука в России и за рубежом" 2017-й, №3(32), 32-36 с.
7. Murodov B.E., Sulaymonov O.A., Yaxyoyev J.N. "O'zbekiston Respublikasida chegaralangan holda tarqalgan va chetdan kirib kelishi xavfi bo'lgan karantin zararkunandalar" uslubiy qo'llanma Toshkent - 2017.
8. Muhammadiev B.Q., Murodov B.E., Sulaymonov O.A.. "Pseudaphicus maculipenis-pseudofikusni laboratoriya sharoitida ko'paytirish bo'yicha qo'llanma" Toshkent - 2012
9. Xujaev SH.T., "O'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan ximoya qilishning zamonaviy usul va vositalari" Tashkent - 2015.
10. SHERALIEV A., ULMASBOEVA R.SH. "Qishloq xo'jalik o'simliklarining karantini". O'qituvchi 2008
11. Xujaev SH.T. "Entomologiya, qishlok xo'jalik ekinlarini ximoya qilish va agrotoksikologiya asoslari" Toshkent 2013-yil.